



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 138 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafojeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
<i>Uralova Muxabbat Sanjar qizi</i>	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
<i>Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи</i>	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
<i>Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна</i>	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
<i>Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
<i>Artikbayeva Aziza Abror qizi</i>	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
<i>Berdiyeva Lobar Norqobulovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
<i>Esanova Maysara Umirovna</i>	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
<i>Feruza Yusupova Akildjanovna</i>	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
<i>Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
<i>Umarov Xusniddin</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA FAOL RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNI TASHKIL ETISHDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Esanova Maysara Umirovna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish tamoyillari, rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishga qo'yiladigan talablar, rivojlantiruvchi muhitda STEAM ta'lim texnologiyasini qo'llash imkoniyatlari hamda maktabgacha ta'limni rivojlantirishda integratsiyalashgan rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish masalalari yoritilgan. Bundan tashqari, STEAM ta'lim texnologiyasining mohiyati, uning maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni hamda rivojlantiruvchi muhit yaratishdagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: STEAM ta'lim texnologiyasi, rivojlantiruvchi muhit, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, talablar, pedagogik qo'llab-quvvatlash, kutilayotgan natija, bola kompetensiyasi, integratsiya, ijodiy faoliyat.

Abstract: The article examines the principles of organizing a developmental environment in preschool education, the requirements for its implementation, the possibilities of applying STEAM educational technology within a developmental environment, as well as the organization of an integrated developmental environment in the process of preschool education development. In addition, the essence of STEAM educational technology, its role in the preschool education system, and its significance in creating a developmental environment are substantiated from a scientific and theoretical perspective.

Key words: STEAM educational technology, developmental environment, creativity, logical thinking, requirements, pedagogical support, expected outcomes, child competence, integration, creative activity.

Аннотация: В статье раскрываются принципы организации развивающей среды в дошкольном образовании, требования к её созданию, возможности применения STEAM-образовательной технологии в развивающей среде, а также вопросы организации интегрированной развивающей среды в процессе развития дошкольного образования. Кроме того, с научно-теоретической точки зрения обоснованы сущность STEAM-образовательной технологии, её место в системе дошкольного образования и значение в создании развивающей среды.

Ключевые слова: STEAM-образовательная технология, развивающая среда, креативность, логическое мышление, требования, педагогическая поддержка, ожидаемый результат, компетентность ребёнка, интеграция, творческая деятельность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim-tarbiyaviy jarayonda innovatsion pedagogik hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga bo'lgan qiziqish va e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilgan mashg'ulotlar bolani mustaqil izlanishga, ijodiy fikrlashga va intellektual salohiyatini shakllantirishga yo'naltiriladi. STEAM – fanlararo integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi bo'lib, u Science (fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) yo'nalishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu yondashuvning maktabgacha ta'limdagi ahamiyati shundaki, u bolalarda muammolarni hal etish va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi, ularni ijodkorlikka, sinov-tajriba o'tkazishga va mustaqil o'rganishga yo'naltiradi, shuningdek jamoada ishlash, loyiha bajarish hamda qurilish-konstruktion faoliyat kabi turli kompetensiyalarni rivojlantiradi. STEAM ta'lim texnologiyasining boshqa texnologiyalardan farqli jihati shundaki, bolalar turli mavzularni muvaffaqiyatli o'zlashtirish jarayonida bir vaqtning o'zida aqliy faoliyat bilan amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlaydilar. Bunda "aql va qo'l" tamoyiliga amal qilinib, bolajonlar olgan bilimlarini amaliy faoliyatda sinab ko'rish orqali tez va samarali o'zlashtiradilar.



Maktabgacha ta'lim tizimiga STEAM ta'lim texnologiyasini joriy etish bugungi kun talabi ekan, texnologiya tushunchasi bilan bir qatorda integratsiya terminining mazmun-mohiyatiga ham alohida e'tibor qaratish muhimdir. Ma'lumki, maktabgacha ta'limda yetakchi faoliyat turi o'yin hisoblanadi, biroq STEAM texnologiyasi tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, bolalar faoliyatida tajriba yetakchi o'rinni egallaydi. O'yinchoqlar va tajribaviy mashg'ulotlar orqali bolalar o'qishga ishtiyoq hosil qiladi, o'lchash, tekislash, hisoblash, bo'yash, muloqot qilishni o'rganadi hamda jamoaviy malakalarni egallaydi, bu esa zarur matematik, muhandislik va san'at ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolalar o'zlari uchun yangi va kreativ g'oyalarni tanlab, ular asosida dastlabki tajribalarni o'tkazadilar hamda shu orqali qiziqarli o'yin shaklida yaratish qobiliyatlari rivojlanadi.

Rivojlantiruvchi muhit bolaning har tomonlama, ya'ni intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun sharoit yaratuvchi muhit hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ushbu muhit doirasida qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi, syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi, til va nutq markazi, ilm-fan va tabiat markazi, san'at markazi hamda musiqa va ritmika markazlari faoliyat yuritadi. Masalan, qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida bolalar "Go'zal bahor" mavzusi asosida qushlar uchun in quradilar, syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazida do'kon, buvimnikiga mehmonga borish, oila yoki shifokor mavzularida o'yinlar tashkil etiladi. Til va nutq markazida bolalar bahor fasliga oid topishmoqlar va she'rlarni o'rganadilar, ertak va hikoyalar tuzish ko'nikmalari shakllanadi. Ilm-fan va tabiat markazida tarbiyachi boshchiligidagi gultuvaklarga gullar ekish jarayoni amalga oshiriladi va bunda bolajonlar ishlarning ketma-ketligini izchil bayon etishni o'rganadilar. San'at markazida "Bahor fasli" mavzusida rasm chizish, applikatsiya va mozaika usullarida ijodiy ishlar bajariladi, musiqa va ritmika markazida esa "Gullar raqsi" o'rganiladi. Ushbu jarayonlarda tarbiyachi bolajonlarni innovatsion texnologiyalar asosida faoliyat yuritishga yo'naltirib borsa, ularda yangi g'oyalar, kashfiyotlar va kreativ yondashuv ko'nikmalari izchil rivojlanib boradi. Rivojlantiruvchi muhitda bolalar har bir mashg'ulotda katta qiziqish bilan ishtirok etib, ko'plab yangi bilim va tasavvurlarga ega bo'ladilar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tarbiyachilar rivojlanish markazlarida bolalarning yordamchilari rolini bajaradilar, ta'limiy faoliyatlar olib boriladigan joyda imkoniyatlar kengligini ta'minlaydilar hamda har bir bolaning individual rivojlanish darajasini inobatga olgan holda faoliyat turlarini rejalashtiradilar. Kun tartibi turli faoliyat turlarini o'zida qamrab olishi lozim: kichik guruhlarda birgalikda va tarbiyachi hamkorligida, shuningdek, yakka tartibda (individual) yoki mustaqil faoliyatlar uchun vaqt ajratilishi zarur, chunki bolalar ongli tanlashni o'rganadilar hamda o'z qiziqish va qobiliyatlarini ro'yobga chiqaradilar. Bolalarning o'z tanlovlarini amalga oshirishi, muammolarni hal etishi, atrofdagi kishilar bilan birgalikda harakat qilishi, individual maqsad qo'yishi va unga erishishni bilishi muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, bolaning rivojlanishiga qaratilgan markazlardagi faoliyat nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi, balki bugungi kunni samarali o'tkazish, o'sish va rivojlanish jarayonining tabiiy kechishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni ham ko'zda tutadi. Buyuk olimlar Jan Piaje, Erikson va L. Vigotskiy nazariyalariga ko'ra, bolani o'rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga ajratish tavsiya etiladi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo'yicha tartibga solinishi lozim bo'lib, bu bolalar o'yinlari va faoliyatining yanada qulay tashkil etilishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlanish markazlariga quyidagi talablar qo'yiladi: eng avvalo, markazlar toza havo bilan ta'minlangan, toza joyda, normal harorat va yetarli yorug'likka ega xonalarda tashkil etilishi lozim; har bir markaz bolani noxush va kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo'lishini ta'minlashi kerak; markazlarda bolalarning harakat, tajriba va kashfiyot qilishini rag'batlantirish hamda buning uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish talab etiladi, jumladan, kichik tadqiqot va tajribalar o'tkazish uchun yetarli jihozlar mavjud bo'lishi zarur. Shuningdek, markazlardagi barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan balandlikda joylashtirilishi hamda bola ulardan bimalol foydalana olishi kerak. Markazdagi faoliyat davomida bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish muhim bo'lib, buning uchun kichik guruhlarda ishlash, juft bo'lib faoliyat yuritish va o'yin o'yinlashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi lozim.

Bolalarda muassasaga tegishlilik hissini shakllantirish, markazlardagi jihozlarning o'z joyida turishi va mavzular bo'yicha taqsimlanishini ta'minlash zarur. Markazlar mazmunli qismlarga bo'linib, u yerda bola uchun kerakli va qiziqarli ashyolar, jihozlar, o'yinchoqlar hamda tarqatma materiallar bo'lishi talab etiladi. Markazga tegishli mebel bolaning jismoniy holatiga mos, erkin harakatlanishiga to'sqinlik qilmaydigan tarzda joylashtirishi, bola o'ziga tegishli jihozlarni bimalol harakatlantira olishi, shuningdek, nogironligi bo'lgan bolalar uchun moslashtirilgan mebel ham mavjud bo'lishi kerak. Markazlardagi rivojlantiruvchi muhit tarbiyachilar va bolalar uchun qulay bo'lishi, bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish hamda mustaqil qaror qabul qilishga undashi

muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, bolaning o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish va markazlardagi bolalar faoliyati samaralarini kundalik bajariladigan ishlar jadvali orqali bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlanish markazlarini tashkil etishda tarbiyachi quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratishi zarur:

- bolalarning mustaqil faoliyat bilan shug'ullanishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratish;
- qiziqtiruvchi, sinov-tajriba asosida bolalarni o'rganish;
- bolalardagi qiziqish, layoqat va qobiliyatlarga e'tiborli bo'lish;
- rivojlanish ko'rsatkichlari hamda yosh xususiyatlarini hisobga olish;
- bolaning ehtiyoj va talablarini inobatga olish;
- bolalar jamoasida, kichik jamoalar va juft-juft bo'lib faoliyat olib borishlari uchun sharoit yaratilgan bo'lishiga alohida e'tibor berish talab etiladi.

Bola rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olishda, avvalo, shuni tushunib yetish kerakki, barcha bolalar rivojlanishning muayyan bosqichlarini bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmasdir. Tarbiyachilar bolalarni aynan bir xil, o'xshash buyumlar va faoliyat turlari bilan ta'minlashdan avval ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari lozim. Shuningdek, bir xil yoshdagi bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqlarga e'tibor bilan munosabatda bo'lish zarurligi mutaxassislar tomonidan alohida ta'kidlanadi. Bunda bola rivojlanishining o'ziga xos jihatlari mos, bolalar qiziqishlariga javob beruvchi faoliyat turlari, ya'ni ularning aqliy, ijtimoiy va ma'naviy yetuklik darajasi nazarda tutiladi. Bunday faoliyat turlari bolalarning tabiatga qiziqishlarini kuchaytirishga, tajribadan qoniqish hosil qilishlariga va o'z g'oyalarini amaliyotda sinab ko'rish istaklariga qaratilgandir.

Qurilish va konstruksiyalash markazida turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda turli inshootlarni bunyod etadilar. Masalan, ilgari ko'rgan tarixiy obidalar, uylar, fermalar va shu kabilar. Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu jarayonda ko'plab bilim va ko'nikmalarni egallaydilar. Ushbu markaz bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Markazda bola qurish va yasashni, matematik bilimlarni amaliy qo'llashni hamda muloqotga kirishishni o'rganadi. Shu bilan birga, mayda motorika rivojlanadi, bola doimiy harakatda bo'ladi, tengdoshlari bilan bir-biridan o'rganadi va o'rgatadi.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida syujet o'yin faoliyatining asosiy komponenti bo'lib, u personajlar, hayotiy vaziyatlar, harakatlar va personajlar o'rtasidagi munosabatlarni o'z ichiga oladi. Syujetli-rolli o'yinlar mazmun va mohiyatiga ko'ra jamoaviy o'yinlar hisoblanadi, biroq bu ularning yakka tartibda o'ynalmasligini anglatmaydi. Ushbu o'yinlar bolaning aqliy, axloqiy va jismoniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etib, bunda bolaning ehtiyojlari va malakalari tarbiyalanib, bosqichma-bosqich shakllanib boradi. Rollarni ketma-ket bajarish, qo'g'irchoqlarning birin-ketin sahnaga chiqishini namoyish etish, sahna o'yini jarayonida hodisalar o'rtasida bog'lanishlar o'rnatish, g'oyalarni sinab ko'rish, xatolarni tuzatish va rejalar tuzib, ularni amalga oshirish bolalarning aqliy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Syujetli-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazida, eng avvalo, bolaning nutqi rivojlanadi, kattalar bilan muloqot qilish ko'nikmalari shakllanadi, qarindosh-urug'chilik munosabatlari haqida tushunchalar hosil bo'ladi. Mehmondo'stlik va mehmonda bo'lish odobi tarbiyalanadi, kattalar mehnati bilan tanishiladi, kasblarga qiziqish uyg'onadi va ma'lum bir kasbni tanlashning ilk bosqichlari shakllana boshlaydi. Bolaning tasavvuri kengayadi, tengdoshlaridan bilmaganlarini o'rganadi, pul bilan muomala qilishning dastlabki ko'nikmalarini egallaydi.

Oilasi, oiladagi ijobiy va salbiy odatlar haqidagi ma'lumotlar bola tomonidan o'zi sezmagani namoyon bo'ladi. Tarbiyachi tomonidan kuzatilgan holatlar asosida ota-onalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yiladi, pedagogik tavsiyalar beriladi va bolalar bilan yakka ishlash rejaları tuziladi. Til va nutq markazi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda eng asosiy, mazmunli va serqirra markazlardan biri hisoblanadi. Ushbu markazda bolalar dastur asosida berilgan mavzular bo'yicha mustaqil faoliyat olib boradilar. Markaz tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni ko'zdan kechirishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin, shuningdek rasmlar asosida mustaqil hikoyalar tuzadilar. "Til va nutq markazi"da bolalar kichik hikoyalar va ertaklar tuzishga, ularni yaratishga va to'qishga o'rganadilar. Kichik jamoa shaklida yoki yakka holda tuzilgan hikoya va ertaklar, yod olingan she'rlar tarbiyachiga aytib beriladi. Natijada bolalar maktabgacha yosh davridan boshlab nafaqat mashg'ulotlar jarayonida, balki mazkur markazda mustaqil ravishda og'zaki ravon nutqini rivojlantirib boradi va kelgusida maktabdagi o'qish faoliyatiga puxta tayyorlanadi. Ilm-fan va tabiat markazida bolalar dastlabki tabiiy-ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib boradilar. Ushbu markazda bolalar tabiat



hodisalari haqida olgan bilimlarini mustahkamlashlari, ko'chadan topilgan buyumlar bilan mashg'ul bo'lishlari mumkin. Bolalar kichik tajribalar o'tkazadilar, oddiy laboratoriya faoliyatini tashkil etadilar va narsa hamda hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydilar. Masalan, suv, havo, qum va tuproqning xususiyatlarini o'rganib, amaliyotda sinab ko'radilar. Ushbu markazda bolalar loy va qumning xususiyatlarini farqlashni, turli tuzilmalarni qurishni o'rganadilar. Kundalik hayotda ishlatiladigan buyumlarning kelib chiqishi, nimadan olinishi haqidagi bilimlarni egallash bolalarning ularga bo'lgan munosabatini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Masalan, nonning dasturxonga kelish jarayoni, paxta chigitidan yog' olinishi, tarvuz urug'ida yog' mavjud emasligi, piyoz ildizini suvga solib qo'yilganda uning o'sishi yoki urug'larni tuvaklarga sepish orqali unib chiqishini kuzatish bolalar uchun juda qiziqarli bo'ladi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida quyidagi kichik tajribalarni o'tkazish mumkin.

Mavzu: suvning xususiyatlari (ta'mi yo'qligi).

Maqsad: bolalarni suvning xususiyatlari, ya'ni uning ta'mi yo'qligi bilan tanishtirish.

Jihozlar: bir stakan suv, bir stakan sok.

Tajribaning borishi: bolalarga bir stakan suv ichirib ko'riladi va "Suvning ta'mi bormi?" savoli beriladi; so'ng bir stakan sok ichirib ko'rib, "Sokning ta'mi qanday?" savoli beriladi.

Xulosa sifatida bolalar o'tkazilgan tajriba asosida suvning ta'mi yo'q degan xulosaga keladilar. San'at markazi bolalarning o'z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishga rag'batlantiradi, yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatini yaratadi hamda sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo'yoqlar, qog'oz, qaychi, bo'rlar, qalamlar, gazlama bo'laklari, kesish va yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud bo'ladi. Shuningdek, yog'och, barg, qum va tuproq kabi tabiiy materiallardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Ushbu markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyatlarni, so'z orqali va so'zsiz muloqotni, umumiy va nozik harakatlanishni hamda aqliy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, bu markazda estetik did, xalq amaliy san'ati durdonalarini tushunish ko'nikmalari shakllanadi. Musiqa va ritmika markazi butun kun davomida mashg'ulotlarni birlashtirish uchun xizmat qiladi. Kuylash, harakatlar, qarsak chalish, o'yinlar, musiqa asboblari chalish hamda yozib olingan kuy-qo'shiqlarni tinglash ta'lim dasturini mazmunan boyitadi. Musiqaviy mashg'ulotlar zehnni charxlaydi, ritmni his etishga, sanashga o'rgatadi va nutqni rivojlantiradi, umumiy va nozik motorikani takomillashtiradi hamda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishga imkon yaratadi.

XULOSA

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish bolalarga o'zlari mustaqil qaror qabul qilishni o'rganish, maqsadlarini belgilay olish va ularga erishish imkonini beradi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bolalarda ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, atrofdagi bolalar va kattalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatlari shakllanadi. Bundan tashqari, bolajonlarda topqirlik, yangi g'oyalarni ishlab chiqish, muammolarning yechimlarini mustaqil topish hamda kreativlik qobiliyatlari rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish faol rivojlantiruvchi muhit yaratishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv bolalarning bilimga faol munosabatini shakllantirishga, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga va ijodiy tafakkurni mustahkamlashga xizmat qiladi. STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga muvaffaqiyatli tayyorlashga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-sonli qarori. 2019-yil 8-may. <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
2. Qosimov Sh. U., Adumajitova S. A. Maktabgacha ta'limda STEAM o'qitish texnologiyasi. 2023-yil.
3. Ashurova Z. M. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyasidan foydalanish metodikasi. Metodik qo'llanma. Buxoro, 2020. ([Инновационная Академия][1])
4. Mahmutazimova Yu. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent: Tamaddun, 2022. ([Инновационная Академия][1])
5. Otayeva S. S. Maktabgacha ta'limda STEAM texnologiyalari. Toshkent: Bookmain Print, 2022. ([Инновационная Академия][1])
6. Волосовец Т. В., Маркова В. А., Аверин С. А. STEM-образование детей дошкольного и младшего школьного возраста. Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2019. ([Открытая Наука][2])
7. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr). Toshkent, 2022. ([Инновационная Академия][1])
8. "Bolangiz maktabga tayyormi?" metodik qo'llanma. T., 2001.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.